

## TABIAT VA MEN



**Erkin Nurmonov**

Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI


Amaliy san'at fakulteti

Dastgohli grafika kafedrası dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20541702>

**Annotatsiya.** Maqolada muallif O'zbekiston tasviriy san'ati rivojiga salmoqli hissaaini qo'shib kelayotgan iqtidorli rassom Qo'chqorboy Akbarovning tug'ilganiga 75yil to'lishi munosabati bilan Foto uyida tashkil etilgan shaxsiy ko'rgazmasi asosida o'z fikr munosabatlarini bayon qilgan.

**Kalit so'zlar:** Qo'chqorboy Akbarov, rassom, dastgohli, rangtasvir, kompozitsiya, manzara, natyupmort, grafika, gel qalam, karton, mato, moybo'yoq, suvbo'y'oq, ekspozitsiya.



Avtoportret 2004y. Karton, retush, bo'r.

2025 yil 19 noyabr kuni, Toshkent Fotosuratlar uyida O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi, iste'dodli rassom Qo'sqorboy Akbarovning "Tabiat va men" nomli shaxsiy ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Ko'rgazmada ijodkorning 100 dan ortiq rangtasvir va grafika asarlari namoyish etildi.

O'zbekiston Badiiy Akademiyasi, O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi, Toshkent Fotosuratlar uyi ko'rgazmani tashkillashtirishda faollik qilishdi.

Rassom ayni mavzuda avval ham shaxsiy ko'rgazma tashkillashtirilganligidan ma'lum bo'ladiki, o'zini tabiat bilan uzluksiz muloqotsiz tasovvur etaolmaydi. Galdagi ko'rgazma ekspozitsiyasidagi ishlarida ham ijodkorni tabiatni ich-ichidan his eta olishi, tabiatga, uning unsurlari va holatlariga hayajonli bir kayfiyatda

yana va yana murojaat etishdan o'zini cheklay olmasligi yaqqol sezilib turadi. Qo'chqorboy Akbarovning mazkur hayajonli kayfiyatda yaratilgan asarlaridan iborat shaxsiy ko'rgazmasi, 2025 yilning 19 noyabr kuni, soat 17.00da, Toshkent Fotosuratlar uyida O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi, istedadli rassom "Qo'chqorboy Akbarovning "Tabiat va men" nomli shaxsiy ko'rgazmasining tantanali ochilish marosimi bo'lib otdi.




Iliq kuz manzarasi.2015 mato,m.b.35x40

Ko'rgazmada rassomning 100dan ortiq rangtasvir va grafika asarlari namoyishga qo'yildi.




*Birinchi qor. 1983. Karton. M.m. 35x50.*

O'zbekiston Badiiy akademiyasi, O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyishmasi, Toshkent Fotosuratlar uyi ko'rgazmani tashkil etishda hamkorlik qilishdi. Rassom ayni mavzuda avval ham sahsiy ko'rgazma tashkillashtirgan. Rassom aynan shu mavzularda yana ko'rgazma tashkillashtirganligidan ma'lum bo'ladiki, u o'zini tabiat bilan uzluksiz muloqotsiz tasovvur



*Shaftolili natyurmort 1988y. Mato, m.m. 40x54*



*Kuzgi manzara 2025. Karton, m.m. 35x54*

etolmaydi. Bu galdagi ko'rgazma ekspozitsiyasidagi ishlarida ham ijodkorning tabiatni ich-ichidan his eta olishi, tabiatga, uninh unsurlari va holatlariga hayajonli bir kayfiyatda yana va yana murojaat etishdan o'zini cheklay olmasligi yaqqol sezilib turadi. Aksariyat asarlarining kompozitsiyalari juda kichik bo'lishga qaramasdan, mavzu va syujet to'laqonli talqin etilganligini his qilish qiyin emas. Bu holada esa, ijodkorning mahorati kuchliligini, ranglar aro munosabatlarni teran tushuna olishini dalillaydi. Rassomning sevimli mashg'ulotlaridan biri ov qilish, ov kengllarini va o'ljalarni ijodiy asarlarida muhrlashdan iboratdir.




*Qishki manzara. 2008y. Karton, gelli ruchka.*

“Avtoportret”i 2004y kartonga retush qalami bilan va bo‘r yordamida chizilgan. Unda mahorat bilan chiziqlarga shunday badiiy tuslarni, soya yorug‘nisbatlari aniq olinganligini sezish qiyin emas. Ko‘z qarashlaridan u o‘z oldiga yetuk rassom sifatida qat’iy bel bog‘lagan ijodkor o‘z xarakterini yaqqol ifodalashga muvaffaq bo‘lgan. “Daraxt”, “Ov qushlari”, “Natyurmort. Stol ustidagi idishlar”, “Qish manzarasi”2008y. Gelli ruchka yordamida tomlari qalin qor bilan


Ijod sohibi asarlari mavzusini tanlash, ularni berilib talqin etishdan ko‘rinadi-ki, ov jarayoni uning ijodining o‘ziga xos ijodiy manbaa bo‘lish uchun xizmat qiladi.

Q.Akbarovning (akvarel) da ya’ni suvbo‘yoqda yozilgan rasmtasvirlari ham alohida e’tiborga loyiq. Ulardagi qog‘ozga singib, shimib ketayotgan ser suvli ranglarga ayni choqdagi holati va kayfiyati o‘zining nafis, xush nafosatni namoyon qiladi. Kishida yengil va pokiza bir hisni, yoqimli kayfiyatni uyg‘otadi. “Kuz manzarasi”, “Birinchi qor”, “Eski masjid ko‘chasi”, “Ov kengliklari”, “Yomg‘irli kun”, “Botqoq qushlari”, “Botqoqlikda quyosh botishi”, “Ertalabki manzara”, “Ko‘l bo‘yida”. Shu bilan bir vaqtda ijod sohibi, grafika yonalishida ham ajoyib, mahoratga boy rassom sifatida tasvirlagan kompozitsiyalar va tomoshabinni o‘ziga tortadigan etyudlar yaratgan. Ushbu tasvirlarda rassomning kasbiy tajribasi beqiyosligini, Turli texnik va texnologiya vositalarini ustamonlik bilan qo‘llayotganligi sezilarli darajada ko‘zga tashlanadi:



*Eski masjid, peshin payti. Karton, gelli ruchka. 31x40.*

qoplangan, yog‘ochdan qurilgan uylar, ular bir-biridan yog‘och, daraxt shox-shabballarni qdab qurilgan devorli, panjaralar bilan chegara sifatida ajratilgan. Mazkur turkumli, “Qishloq manzarasi”2005y, “Qishki manzara” qog‘ozga qora qalam peshin vaqtdagi daraxtlar ostidagi uy, hovli, uning yonidan o‘tlar bilan qoplangan ariq, unu ustiga qurilgan taxtali ko‘prik, uni ustidan o‘tib uzoqqa qisqarib ketgan tuproqli yo‘l-xalq, odamiar bosgan oyog‘idan qo‘gan izlar, va uni




*Aktyor portreti 2020y. Qog'oz, retush.*

ustidan o'tgan va bir oz osilib, qisqarib ketgan sim yogochlar tasvirlari tomoshabinga yoshlik damlarini, sokinlik payitlarini yodga soladi. Uylarning hovlilaridagi yogochdan alohida usta mahorati bilan qurilgan ayvoncha, uni tagida qishda yuvilgan kirlarni quritash vositasi sifatida dorga ilingan turli xil kiyim-kechaklar, shoxlardan qurilgan og'ilxona-yu, molxonalar. Bu qishloq hovlilari-yu, oppoq qor bosgan, arava, avto ulov yurgandan qolgan chuqur izlar, xashak, urigan somonlaru aralashib haqiqiy qishning o'ziga xos tarovatini ko'z o'ngingizda namoyon etadi. Yo'l kabi asarlari orasida "Eski masjid". Peshin payit 2011yil gel qalamda aks ettirgan kompozitsiyasi rassom yashab istiqomat qilayotgan yurtning mahallalaridan birida tasvirlangan. Mazkur ish kartonga grafikaning texnikasi bo'lmish gelli qalam bilan chiziqli usulda, oq-qora uslubda, qishloq mahallasi ko'chasida joylashgan ikki qavatli kvadrat shaklga va uning tepasidagi pahasasi buzilib, to'kilib tushgan, loy bilan suvalgan eski masjid birinchi rejada ko'zga tashlanadi. Shuningdek, u bilan yonma-yon va qarama-qarsh tarafidagi qurilgan uylar issiq quyoshli kunda, yorqin, keskin yorug'-soyali ustalarcha topilgan tasviriy yechimdagi koloritda ifodalashga muvaffaq bo'lgan. Mazkur perspektiv qisqarishli, ikki tomoni baland-past uyli ko'chda o'z turmush tashvishlari bilan harakatlanib yurgan shu qishloq odamlarining sharqona jddiy, milliy liboslardagi erkak va ayollarning qomatlari qadimiy, oddiy sodda ma'no va mazmun, g'oya bilan sug'orilgan.

Q.Akbarov portret janrida ham yaxshigina retush, bo'r, gelli ruchka va boshqa vositalardan unumli foydalanib,"Aleksandr portetini 2020 y, "Laura portreti"ni 2021 y, "Akbar portreti"ni 2020y, grafika badiiy vositalaridan ilmiy-ijodiy ahoratlarini ishga ustalarcha zehn bilan ifodalashni o'rniga qo'ygan.

Rassom o'zi tug'ilib o'sgan qishlog'i, baliqchilik bilan shug'ullanishga moslashgan xo'jalik yonida, chirchiq daryosiga yaqin nihoyatda keng ko'llardan iborat, ser suv, qamishzorlar serob. So'zsiz bu yerda baliq ovlash uchun ko'llarga uchib keladigan baliqchi qushlarning turli xil turlari rassomnigg ovchilik qiziqishi, mahorati bilan va ovlangan qushlarni tasvirlashga qiziqish va shu ko'llarni turli fasllarda o'ziga xos shu mavzudagi tasviriy asarlarini moy bo'yoqlarda, suv boyoqlarda, va grafia texnika-texnologiyalari asosida aks ettirishga alohida qiziqishini uyg'otadi va bu tabiiy jarayondek uning ijodining doimiy manbaiga aylanib qolgan.



*Akbar portreti 2020y. Qog'oz retush*



Лаура портрети. 2021й. Қўоз,  
ретуш. пастель 50x32

Rassomning 2008 yilgi “Quyoshbotishi”, 2011yili ishlagan “Ertalabki kun”, “Ko‘l bo‘yida”, 2019y aks ettirgan “Yomg‘irli kun”, 2020 yili Qoratosh mahallasi”, 2024 yil yozgan “Botqoqlik. “Quyosh botishi” manzarasi qog‘ozga suvbo‘yog‘i bilan tasvirlangan. Mazkur rangtasvirlarida ifodalangan o‘sha o‘zining, ona yurtining tabiatini, sof havoga to‘la ko‘llarini kunning turli vaqtidagi bachaga yoqishi mumkin bo‘lgan oniy manzaralariga to‘a, oniy lahzalarini, o‘z ijodiy tafakkuridan o‘tkazish jarayonida hosil bo‘lgan ijod mahsulini katta mehnat va g‘ayrat bilan ifodalab uni tomosha qilayotganlarni ana shu manzaralar ichida hayolan bo‘lsada sayr qilishga undaydi. Q.Akbarovning hayoti va ijodiy faoliyatini quyidagicha ketma-ketlikda sanalash mumkin.

1950 – Toshkent viloyati, Yangiyi‘l tumanida tug‘ilgan.

1974y- P.Ben‘kov nomidagi Respublika bilim yurtini tugatgan.

1982 yildan Respublika va halqaro ko‘rgazmalarda ishtirok eta boshlagan.

1984 y – Toshkent Teatr va rassomlik institutini tugatgan.

1994 y.-O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmaining a‘zosi.

2023 y.-I.Xiroyama xalqaro san‘at karvonsaroyida “Tabiat va men”nomli shaxsiy ko‘rgazmasini o‘tkazgan.

2025 y.-P.Benkov nomidagi Respublika rassomlik maktabida hamda Respublika dizayn maktabida “Shogirdlarga bahshida umr”nomli shaxsiy ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tgan.

Ijodiy jarayoni va hayotiy faoliyati sinchiklab ko‘rib, o‘rganib chiqish mobaynida 75 yillik faoliyati davomida sevib, mehr qo‘yib, unga sodiq qo‘lgan holda O‘zbekistonda ajoyib, tabiatning ser suvli, go‘zal manzaralari va u yerlarda o‘zining oddiy hayot tarzini otkazayotgan, mehnatkashlar bilan o‘z softligini saqlab qolgan go‘shalarini to‘xtovsiz tasvirlashdan zavq olayotgan ijod sohibiga yana ko‘p yillar ijodiy, bag‘ri keng umr tilaymiz.